

## ZARAFSHON HAVZASINING TOJIK VA TURKMAN MILLIY-ETNIK GURUHLARGA OID ETNOTOPONIMLAR

Qulmatov Dilmurod Xidirovich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti  
“Fundamental va gumanitar fanlar” kafedrasida assistenti,

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada Zarafshon vohasida son jihatdan o‘zbeklardan keyingi o‘rinda turuvchi tojiklarning katta bir qismi qadim davrlardan beri ushbu vohaning mahalliy aholisi bo‘lib kelgan.

**Tayanch so‘zlar:** Tojik, Arabon, O‘zbekon, Qalmoqon, Qarluqon, Sarayon, Jandiy, Qatag‘on, (Hofiz) Qo‘ng‘irot, Durman, Qalmoqon, turkman.

Ba‘zi o‘rinlarda “tojik”, ba‘zan esa “tojik tilli” aholi deb atalishining sababi shundaki, ularning katta bir qismi etnik jihatdan tojik bo‘lsalar, sezilarli bir qismi esa tojik tilida so‘zlashuvchi arablardan iboratligidir<sup>1</sup>. Bu holat vohaning Samarqand va Buxoro viloyatlarida yashovchi arablariga xosdir. Shuningdek, Navoiy viloyatida yashovchi arablarning bir qismi bugungi kunda o‘zaro muloqotda tojik tilidan foydalanadilar. Shunga o‘xshash holat Markaziy Osiyoda, xususan, katta bir qismi O‘zbekiston va Tojikistonda yashovchi arablarda ham ko‘zga tashlanadi<sup>2</sup>. Har ikkala davlatning bir necha viloyatida, ayniqsa, janubiy viloyatlarida yashovchi arablar orasida ham o‘zbek tilida, ham tojik tilida muloqot qiluvchi arablardan iborat bir necha o‘nlab qishloqlar borligi bu fikrni tasdiqlaydi.

Tojik tilli aholi bilan bog‘liq toponimlar Zarafshon vohasida ham Markaziy Osiyoning ko‘pgina hududlarida bo‘lgani kabi qadim davrlardan boshlab uchray boshlaydi. Zarafshon vohasidagi har uchala viloyatda ham tojikcha *-on* (*mas.* Arabon, O‘zbekon, Qalmoqon, Qarluqon, Sarayon va h.k.), *-ho* (*mas.* Arabo, O‘zbeko, Qarluqo va h.k.) kabi ko‘plik yasovchi toponimlar<sup>3</sup> bilan birgalikda *-zor*, *-iston*, *-ob*, *bolo* “yuqori”, *poyon* “quyi”, *-gar*, *-do‘z* singari aholi maskanining geografik o‘rni yoki aholi kasb-kori bilan bog‘liq joy nomlari anchagina miqdorni tashkil etadi.

**Tojiklar.** Zarafshon vohasining bir qator hududlarida, xususan, vohadagi Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarining bir qator tumanlari aholisining sezilarli bir qismini etnik tojiklar va tojik tilli aholi tashkil qilib, bu holat mazkur hududlarning XX asr toponimikasida ham o‘z aksini topgan. Ayniqsa, bu holat Buxoro viloyatining markazi – Buxoro shahri va viloyatning

<sup>1</sup>Ражабов Р. Ўзбекистондаги араблар тарихи ва этнографияси. – Б. 158, 207.

<sup>2</sup>Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана... – С. 111-113.

<sup>3</sup> Ражабов Р. Ўзбекистондаги араблар тарихи ва этнографияси. – Б. 191-192.

Shofirkon, G'ijduvon, Kogon, Peshku, Konimex, Qiziltepa tumanlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, Buxoro shahridagi mahalla va guzarlar bo'yicha XX asrning ilk yarmigacha yig'ilgan statistik ma'lumotlar va etnologik tadqiqotlarda ushbu shahar aholisining katta qismi tojik tilli aholidan tashkil topganligi, ularning ancha ko'pchiligini tojik tilida so'zlashib, o'zlarini o'zbek deb hisoblovchi aholi, sezilarli bir qismini tojik tilida so'zlashuvchi, biroq etnik mansubligi tojik yoki o'zbekligi aniqlanmagan aholi va yana muhim bir qismi tojik tilli etnik tojik aholidan iborat ekanligi aniqlangan. Xususan, O.A. Suxareva tomonidan 200 dan ortiq Buxoro shahridagi mahalla va guzarlarning mahalliy aholisi asosan tojik tilli o'zbeklar, tojiklar va qisman forslar, arablar, yahudiylar, shuningdek, ma'lum miqdordagi turkmanlar, qozoqlar va boshqalar borasida muhim dalillar keltiriladi<sup>4</sup>. Tadqiqotchi tomonidan keltirilgan ma'lumotlar asosida XX asrning ilk yarmida Buxoroda mavjud bo'lgan aholi maskanlari (toponimlar) va ularning etnik tarkibi haqida muayyan tasavvurga ega bo'lish mumkin (*Qarang.1-ilova*).

Tadqiqotimizning ilova qismida keltirilgan jadvaldan ko'rilganidek, XX asr boshlarida Buxoro shahridagi 220 ta mahallaning nomi til jihatidan turfa xil bo'lib, ularning katta bir qismini fors-tojikcha nomlar tashkil etgan. Buxoro mahallalarining sezilarli bir qismi esa arabcha va turkiy (o'zbek)cha nomlardan iborat bo'lgan. Har uchala tilga mansub mahalla nomlarining katta bir qismini antroponimlar, bir qismini esa etnonimlar tashkil qilib, ular orasida o'zbek urug'lari bilan bog'liq shu kabi etnotoponimlar uchraydi: Turki Jandiy, Qatag'on, (Hofiz) Qo'ng'iroq, Durman, Qalmoqon, Uruson, Chubuton<sup>5</sup>. Shuningdek, Buxoroning bir qator mahalalarida yashovchi aholining sezilarli bir qismi o'zlarining kelib chiqishini o'zbek urug'lari bilan bog'lagan bo'lib, ular orasida *mang'it* (8 ta mahallada), *urganji* (4 ta mahallada), *kenagas* (3 ta mahallada), *bahrin*, *batosh*, *chuyut*, *nayman*, *uch-urug'*, *o'zbek-turkman*, *qalmoq*, *burqut*, *qirq-yuz* singari urug'lar yoki aholi guruhlari istiqomat qilishgan<sup>6</sup>.

Ular orasida mang'itlar nisbatan ko'pchilikni tashkil etib, ba'zi mahallalarda ular o'zaro tojik tilida so'zlashgan bo'lsalar, ayrim mahallalarda esa ushbu urug' vakillari o'zbek tilida so'zlashishgan. Bu holat urganji, kenagas urug'lari vakillariga ham xos bo'lib, ular har ikkala tilda erkin muloqot qila olganlar. Shunga o'xshash holatni bahrin, burqut, batosh va hokazo kabi Buxoroda yashagan o'zbek urug'lari misolida ko'rish mumkin. Buxoroda aynan mazkur urug' vakillarining o'z etnonimlarining saqlab qolishlari bejiz bo'lmay, ular Buxoro amirligi davrida amirlikdagi nufuzli urug'lar hisoblanishgan. Ayniqsa, Buxoro amirlari mang'it urug'idan bo'lib, ushbu sulolaga mansub hukmdorlar boshqaruv va harbiy ishlarda urug'doshlariga tayanishi natijasida shaharda mang'it urug'i vakillarining salmog'i oshishiga

<sup>4</sup> Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 67-77.

<sup>5</sup> Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 91, 128, 160, 198

<sup>6</sup>Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – Т.: АН УзССР, 1958. – С. 79; Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 105, 126, 152, 160, 163, 166, 224

olib kelgan. Masalan, Kuyi murgkush, Shishaxona, Mir-Do‘stum, Qirg‘iz-oyim, Mirjon-keldi, Abdullo-qushbegi, Iskandar-xon kabi mahallalarda bir qator oilalar o‘zlarini “o‘zbeklarning mang‘it urug‘iga mansubmiz” deb e‘tirof etganlar<sup>7</sup>.

Buxoro shahrining Havzi Baland mahallasida 100 ga yaqin xonadon mavjud bo‘lib, aholisining katta bir qismi forslardan, bir qismi esa tojik tilli o‘zbeklardan iborat bo‘lgan va shu bois ular yashaydigan ko‘cha “Ko‘chai o‘zbako” (O‘zbeklar ko‘chasi) deb nomlangan<sup>8</sup>. Ba‘zi tojik tilli ma-hallalarning aholisi o‘zlarini “biz o‘zimiz o‘zbekmiz-u, tilimiz tojikcha” (“xudashon o‘zbak-u, zabonashon tojiki”) deb javob bergan hollar kuzatilgan. Masalan, 60 xonadondan iborat Qo‘sh-madrasa aholisi o‘z etnik mansubligini shu tarzda ifodalab, “tojik” deganda forslarni tushunishini aytishgan<sup>9</sup>. Ushbu mahalla nomining turkiy (o‘zbek)cha ekanligi ham bu yer aholisining etnik kelib chiqishi o‘zbek bo‘lib, keyinchalik tojik tilida so‘zlashishga o‘tganliklarini tasdiqlaydi. Shuningdek, 95 xonadondan iborat Mehtar Anbar mahallasining tojik tilli aholisi o‘zlarni “Buxoro o‘zbeklari” (“O‘zbekoi Buxoro”) deb tanishtirganlar<sup>10</sup>. O.A. Suxarevaning yozishicha, buxoroliklar ayrim hollarda tojikcha so‘zlashuvchi o‘zbeklarni “tojikigo‘y” yoki “forsigo‘y”, ona tili o‘zbekcha bo‘lganlarni esa “turkigo‘y” deb atashgan<sup>11</sup>.

Shuningdek, ayrim mahallalar (Arroki misgaron, Nodir-vays, So‘zangaron, Mag‘g‘oki attoron va h.k.)ning aholisi tojikcha so‘zlashib, o‘zlarini “tojik” deb hisoblashgan. Bu toifa aholining xo‘jalik hayoti va kasb-korida ko‘pincha hunarmandchilik ustuvor bo‘lib, asosan misgarlik, duradgorlik, novvoylik, bo‘yoqchilik, turli buyumlar yasash, tijorat va hokazolar<sup>12</sup> bilan shug‘ullanishgan.

Shu o‘rinda XX asr boshlarida Buxoro shahri mahalliy aholisining etnik mansubligini aniqlash masalasida mavjud bo‘lgan an‘analarga to‘xtalib o‘tsak. XIX asr o‘rtalari – XX boshlarida Buxoro shahriga tashrif buyurgan xorijlik, xususan, rossiyalik sayyohlar, elchilar, sharqshunos va hokazo kishilar tomonidan yozib qoldirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, shaharning mahalliy aholisi orasida millat tushunchasiga Markaziy Osiyoning ko‘pchilik o‘lka, viloyat va shaharlarida yevropaliklardan farqli o‘laroq lisoniy emas, diniy tomondan yondashilgan. Ayniqsa, Buxoro shahri aholisi orasida, xususan, sunniy mazhabdagi o‘zbek va tojik aholi o‘zlarini keskin ravishda “o‘zbek” yoki “tojik” deb ajratmasdan, o‘zlarini umumiy nom bilan “buxorolik” yoki “musulmon” deb ataganlar<sup>13</sup>, o‘zlaridan mazhab ji-hatidan farqlanuvchi, asli marvlik yoki eronlik bo‘lgan shia mazhabidagilarni esa “forsiy”, “eroniy”, “mavriy” deb nomlaganlar.

<sup>7</sup> Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 71, 126, 152, 160, 163, 166, 234

<sup>8</sup> Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 123.

<sup>9</sup> Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 151

<sup>10</sup> Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 258

<sup>11</sup> Сухарева О.А. Бухара XIX – нач. XX вв. – С. 128.

<sup>12</sup> Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 172, 181, 196, 216

<sup>13</sup> Сухарева О.А. Бухара XIX – нач. XX вв. – С. 127.

O.A. Suxarevaning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, buxoroliklar "tojik" nomi ostida, asosan, eronlik shialarni tushunishgan, tojik tilli sunniy aholini esa ko'pincha "o'zbek" deb bilishgan<sup>14</sup>. Olimaning tadqiqot-larida Buxoroning deyarli har bir mahallasining etnik tarkibiga to'xtalish mobaynida quyidagicha ma'lumotlar keltirilgani ko'zga tashlanadi: 1) "... mahalla. Tojik tilli aholi"; 2) "... mahalla. Tojik tilli, biroq o'zlarini o'zbek hisoblovchi aholi"; 3) "... o'zini o'zbek deb atovchi, biroq tojikcha so'zlashuvchi aholi"; 4) "... mahalla. O'zbek tilli, o'z urug'i nomini biluvchi aholi (mang'it, kenagas va h.k.)"; 5) "... tojik tilli. Etnik mansubligi (o'zbek yoki tojik) aniqlanmagan aholi"; 6) "... mahalla. Tojik tilli, Buxoroning tojik tilli qishloqlaridan ko'chgan aholi (Ponob va h.k.); 7) "... mahalla. Tojik tilli, o'zini o'zbek deb atab, "tojik" deganda eroniy shialarni tushunuvchi aholi"; 8) "... mahalla. Tojik tilli buxoroliklar" va h.k.<sup>15</sup>. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, Buxoro shahrining ayrim mahallalarida tojik tilli aholi o'zini "o'zbek" deb atab, hatto o'zlari gaplashadigan tojikchani "o'zbekcha" deb nomlashgan<sup>16</sup>.

Ayrim mahallalarda aholining bir qismini tojik tilli o'zbeklar va o'zbek tilida so'zlashuvchi o'zbeklar tashkil etgan holatlar ham uchratilgan. Masalan, Durman, Zindafil Ahmadi Hoji, Kosagaron, Mirakon, Iskandar-xon mahallasida shunday holat kuzatilgan<sup>17</sup>.

Ayrim mahallalarda esa "tojik", "fors (eroni)" va "o'zbek" singari uch etnos vakillari birgalikda istiqomat qilganlar. Masalan, Po'stinduzon mahallasida aholining katta bir qismi tojik tilida so'zlashib, o'zlarini "tojik" deb ataganliklari, bir qismi bo'lsa "o'zbek" deb atalgani ko'zga tashlanadi. Shuningdek, bu yerda fors xonadonlari ham mavjud bo'lgan<sup>18</sup>.

Buxoro mahallalarida yashovchi aholi orasida etnik jihatdan milliy mansublik masalasida o'zini "tojik" deb bilish Buxoro atrofida tojik tilli qishloqlardan ko'chib kelgan aholisi orasida nisbatan ko'proq tarqalganligi ma'lum. Masalan, Mullo Hoki roh yoki Ponobiho (ponobliklar) mahallasida yashovchi aholi tojik tilida so'zlashib, o'zlarini "tojik" deb atagan va Buxoro shahridan 24 chaqirim masofada joylashgan tojik tilli Ponob (Poyoni-ob) qishlog'i bilan doimiy aloqada bo'lgan<sup>19</sup>.

Ushbu ma'lumotlardan anglashiladiki XX asrning ilk yarmi, xususan, 20-30 yillarda Buxoro shahri mahalliy aholisi ong sezimi, milliy mansublik masalasida turlicha tushunchalar mavjud bo'lgan. Avvalo, shahar aholisining katta qismi o'zbek va tojiklardan tashkil etsa-da, har ikkala aholi orasida "etnik/milliy mansublik" masalasida bir qolipdagi yagona tushuncha bo'lmay, ular "millat" deganda ko'proq diniy yoki regional mansublikdan kelib chiqishgan, ya'ni mintaqaning islom diniga e'tiqod qiladigan turli xalqlari kabi<sup>20</sup> o'zlarini "musulmon",

<sup>14</sup> Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 73, 94, 255.

<sup>15</sup> Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 67-264.

<sup>16</sup> Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 254.

<sup>17</sup> Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 97-98, 128-132, 234

<sup>18</sup> Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 88-89

<sup>19</sup> Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары ... – С. 87-88.

<sup>20</sup> Абашинов С.Н. Этнографическое знание и национальное строительство в Средней Азии ... – С. 19.

“buxoroyi” (“bu-xorolik”) deb atashgan<sup>21</sup>. Aksariyat mahallalarda tojik tilli aholi o‘zini “o‘zbek” deb tanitib, “tojik” deganda “eroni” (shia mazhabidagi)larni tushunishlarini aytgan bo‘lsalar-da<sup>22</sup>, ulardan farqli o‘laroq Buxoro mahallalarning katta bir qismi o‘zlarini “tojik tilli” deb atab (107 mahalla), ulardan aynan qanchasi etnik mansublik masalasida o‘zlarini “tojik” yoki “o‘zbek” deb ko‘rsatgani aniq emas.

Shu bilan birgalikda, shaharning ayrim mahallalarining tojik tilli aholisi o‘zlarini boshqa aholi (o‘zbek, fors, yahudiy va arablar)dan o‘zlarini alohida ko‘rsatishgan hollar ham uchragan. Bu holat ko‘proq Buxoro shahri atroflaridagi tojik tilli qishloqlardan ko‘chib kelgan aholi orasida ancha-muncha sezilib turgan. O.A. Suxareva boshqa bir tadqiqotida Buxorodagi 220 ta mahalladan 193 mahallada aholi tojik tilida so‘zlashuvchilardan iboratligi, 102 ta mahalla aholisiga “o‘zingizni kimlarga mansub deb bilasiz” mazmunidagi savolga 88 ta mahallada aholi “o‘zlarini o‘zbek deb hisoblashlarini”, 11 ta mahallada aholi o‘zlarini “tojik” deb bilishlarini ta’kidlab yozadi<sup>23</sup>. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, so‘zlasha-digan tillari qanday bo‘lishlariga qaramay, turli paytlarda farqli tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan so‘rovlarda shahar aholisining mutlaq ko‘pchiligi o‘zlarini “o‘zbek” hisoblashgan<sup>24</sup>.

Buxoro mahallalaridan bir qanchasida aholi, garchi tojik tilida so‘zlashsalar-da, ularning etnik mansubligi masalasi ochiq qolgan (13 mahalla). Bunday turfa xillik ayrim hollarda tadqiqotchilar to‘plagan materiallarning ishonchlilik darajasi, informatorlarning o‘zlariga berilgan savolni qay darajada tushunganliklari kabi omillar bilan bog‘liq bo‘lgan.

Demak, XX asrning birinchi yarmigacha Buxoro shahrining demografik holati va joy nomlariga doir amalga oshirilgan tadqiqotlarda keltirilgan materiallar bilan qisqacha tanishib chiqish natijasida quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

- Buxoroda mavjud bo‘lgan 220 ta mahalla nomlarining katta qismini antroponimlar tashkil etib, ular diniy (xo‘ja, eshon, hoji, shayx, mir, mullo) va boshqaruvchi toifalar (xon, amir, qushbegi, qozi, mehtar, dorug‘o, mirzo), turli kasb-kor egalari (domullo, tabib), laqab va hokazo shaxs ismlaridan iborat bo‘lgan;
- Buxoro mahallalarining bir qismi etnonimlar asosida shakllangan bo‘lib, ular orasida o‘zbek urug‘lari nomlari ko‘pchilikni tashkil etgan. Shuningdek, fors, arab, qozoq, turkman kabi markaziy osiyolik xalqlar nomlari bilan bog‘liq toponimlar ham uchratilgan;
- Buxorodagi mahalla nomlarining sezilarli bir qismi aholining xo‘jalik hayoti, maishiy hayoti vakasb-kori bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan (Telpakfurushon, Sobungaron, Axtachi, So‘zangaron, Pistashikanon, Degrezi, Govkushon, Charmgaron, Siyokaron, Mixchagaron va h.k.);

<sup>21</sup>Сухарева О.А. Бухара XIX – нач. XX вв. – М.: Наука, 1966. – С. 121-125.

<sup>22</sup>Сухарева О.А. Бухара XIX – нач. XX вв. – С. 126.

<sup>23</sup>Сухарева О.А. Бухара XIX – нач. XX вв. – С. 124.

<sup>24</sup>Сухарева О.А. Бухара XIX – нач. XX вв. – С. 126.

- shahardagi mahalliy aholining katta qismini o‘zbek va tojiklar tashkil etib, o‘zaro muloqot tili tojik tili bo‘lgan. Shuningdek, Buxoro mahallalarining sezilarli bir qismi forslar, yahudiylar, arablardan iborat bo‘lgan. Bundan tashqari, turkman, tatar, qozoq kabi nisbatan kamchilikni tashkil qiluvchi xonadonlar ham Buxoro shahri mahalliy aholisining tarkibiy bir qismini tashkil etgan.

**Turkmanlar.** Zarafshon vohasida turkman xalqi bilan bog‘liq anchagina joy nomlari uchrab, buning zahirida ko‘plab tarixiy voqealar yotadi. Markaziy Osiyoning turkiy xalqlaridan biri bo‘lgan turkmanlar etnik shakllanishi mobaynida bir necha tarix jarayonlari boshdan kechirganlar. Mintaqaning o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, uyg‘ur kabi turkiy xalqlari qatorida turkmanlar ham millat sifatida shakllanish jarayoni muayyan makon va zamon bilan bog‘liq ravishda turli etnosiyosiy bosqichlarni bosib o‘tishgan.

XX asrda Zarafshon vohasida turkmanlar bilan bog‘liq o‘nlab aholi maskanlari mavjud bo‘lib, ularning sezilarli bir qismi Samarqand shahrining janubi-g‘arbida, shuningdek, Pastdarg‘om tumanida joylashgan bo‘lsa, katta bir qismi Zarafshon daryosining quyi havzasida – Buxoro viloyatning asosan Olot, Qorako‘l tumanlarida, qisman esa Jondor, Romitan, Peshku, Shofirkon, Kogon va Buxoro tumanlarida o‘zlarining bir necha qishloq va mahallalariga ega edilar. Zarafshon turkmanlariga aloqador aholi maskanlarining bir qismi ular yashaydigan joyning geografik xususiyati bilan bog‘liq bo‘lib, bir qismi o‘g‘uz urug‘lari, shu jumladan, turkmanlarning *chandir, xidir-eli, ata, chovdur, qorovul, ersari, taka, tuyachi* (turkm. *duyechi*), *qarqin, mukri* singari urug‘lariga aloqador etnotoponimlardan tashkil topgan<sup>25</sup>.

Mazkur qishloqlarning turkman aholisi tilshunos olim A. Allaberdiyevning aniqlashicha, Buxoro vohasida yashovchi o‘g‘uz o‘zbeklar bilan til va madaniyat jihatidan yaqin o‘xshashlikka ega. Tadqiqotchi yozganidek: “Buxoro viloyatining Qorako‘l va Olot tumanlarida, Romitan va Peshku tumanlariga qarashli Sepata, Qorali, Chelang‘u qishloqlarida, Buxoro tumanining Losha, Xargo‘sh, Xumin, Xumdanak qishloqlarida, Gazli shaharchasi atrofida (Qoqishduvon), Shofirkon tumani Chandir aholi punktida yashab, o‘z avlodiga mansub bo‘lgan o‘g‘uz urug‘-qabilalarni – olot, solur, arsari, bayot, jig‘achi, darg‘ali, janafar, qoroun, qorovul, sayot, chandir, eski, tomijiq, bo‘rjoq kabilarni yodda saqlab kelayotgan buxorolik o‘g‘uz o‘zbeklarning ushbu joyda yashab kelayotgan turkman shevalari vakillari so‘zlashuviga ta’siri beqiyosdir”<sup>26</sup>.

Shu o‘rinda “Buxoro turkmanlari”, “o‘g‘uz o‘zbeklar” kabi atamalar orasida qanday aloqadorlik bor, bu ikkalasi ham bir ma’noda emasmi?” mazmunida savol tug‘ilishi tabiiy. Aslida, “o‘g‘uz” atamasi ilk o‘rta asrlarda turli tillardagi (asosan, qadimgi turkiy, arab, fors) manbalarda turkiy xalqlarning katta bir qismini o‘zi ichiga olib, o‘ziga xos alohida lahjasi va

<sup>25</sup>Allaberdiyev A. Buxoro ўғуз шеваларининг лексик қатламлари. – Т.: Abu Matbuot-konsalt, 2016. – Б. 16-17; Allaberdiyev A. Buxoro ўғуз шевалари лексикаси ... – Б. 17; Allaberdiyev A. Buxoro ўғуз шевалари лексик қатламлари.

<sup>26</sup>Allaberdiyev A. Buxoro ўғуз шеваларининг лексик қатламлари ... Б. 16-17; Allaberdiyev A. Buxoro ўғуз шевалари лексикаси... – Б. 17.

urf-odatlariga ega turkiy qabila-urug'lar ittifoqiga nisbatan qo'llanilgan. X-XI asrlarga kelib esa o'g'uz nomining sinonimi sifatida arab va fors manbalarida "turkman" etnonimi uchray boshlaydi. Qariyb ming yildan beri o'g'uz turklarining ba'zan umumiy nomi, ba'zan esa o'g'uzlarning bir qismining, aniqrog'i, o'g'uzlarning sof ko'chmanchi qismini ifodalaydigan atama sifatida "turkman" etnonimi Markaziy Osiyoning sezilarli bir qismida – Sirdaryoning quyi havzasi, Orolbo'yi, Kaspiy dengizi va Amudaryo oralig'idagi cho'l hududda, Kichik Osiyo, Janubiy Kavkaz, Iroq va Eronda keng tarqaladi<sup>27</sup>.

Zarafshon vohasi turkmanlari, xususan, Buxoro turkmanlari ushbu o'g'uz – turkmanlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqador bo'lsa, "o'zbek o'g'uzlari" esa ular bilan yaqin etnogenezga ega, biroq asrlar davomida turkiylarning boshqa guruhlar, shu jumladan, qarluq va qipchoq lahjasida so'zlashuvchi turkiy aholi bilan yaqin munosabatlarda natijasida muayyan darajada til va xo'jalik hayoti o'zgarishlarga uchragan aholi sifatida ma'lum. Boshqa tomondan esa Buxoro viloyati turkmanlarining sezilarli bir qismi o'zbeklar bilan qalin etnomadaniy munosabatlarda bo'lishlari natijasida "o'g'uz o'zbeklari" tarkibidan joy olgan holatlar ham kuzatiladi.

"Turkman" etnotoponimi Zarafshon daryosining o'rta havzasida ko'plab uchrab, ular asosan Samarqand viloyatining Ishtixon, Jomboy, Pastdarg'om, Payariq va Samarqand tumanlarida, Navoiy viloyatining Karmana va Xatirchi tumanlarida bir qator aholi maskanlari shu nom bilan atalishida o'z ifodasiga ega<sup>28</sup>. Shuningdek, voha joy nomlari orasida turkman urug'-larining nomi bilan ataladigan bir qator etnotoponimlar ham uchrab, ular orasida "Chandir" nomi nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. Jumladan, Samarqand shahri atrofida Turkman nomli qishloqda *xizr-eli* / *xidir-eli* urug'i vakillari yashasa, viloyatning Pastdarg'om tumanidagi qishloq nomi chandir urug'i nomi bilan atalgan. Shuningdek, "Chandir" nomli qishloqlar Buxoro viloyatining Shofirkon, Vobkent tumanlarida, Qorako'l vohasida uchrab, mahalliy aholi ularni ko'pincha turkman sifatida talqin qilsalar-da, biroq quyida batafsilroq to'xtalib o'tiladiganidek aslida ularga o'zbeklarning o'g'uz guruhi sifatida qarash ma'qul.

1924 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, sobiq Buxoro amirligida 9565 nafar xizr-eli urug'i vakillari yashab, ulardan 2 mingdan ortiqrog'i Qorako'l vohasida istiqomat qilishgan<sup>29</sup>.

Shu o'rinda XX asrda Zarafshon vohasi aholisining bir qismini tashkil qilib, "turkman" deb atalgan aholining hammasini to'g'ridan-to'g'ri bugungi turkman xalqi yoki millati sifatida talqin qilish har doim ham o'zini oqlamasligini aytib o'tish kerak. Ayniqsa, vohaning Nurota

<sup>27</sup>Агаджанов С. Г. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX – XIII вв. ... – С. 226-230; Дониёров А., Бўриев О., Аширов А. Марказий Осиё халқлари этнографияси, этногенези ва этник тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: Yangi nashr, 2011. – Б. 42.

<sup>28</sup>Уринбоев Б. Асрлардек барҳаёт номлар (Самарқанд вилояти топонимлар изохи). –Самарқанд, 2003. – С.178; Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX - начало XXв.) / Материалы к исторической географии Средней Азии. Под. Ред. А.Р. Мухаммеджанова. –Т.: Университет, 2001. – С. 128.

<sup>29</sup>Материалы по районированию Средней Азии. Книга 1. Территория и население Бухары и Хивы. Часть 1. Бухара. – Ташкент, 1926. – С.210.

vohasi va Jizzax viloyatiga yaqin qismlarida “o‘zbek-turkmanlar” yoki “o‘zbeklarning turkman urug‘i” sifatida bilinadigan aholi o‘zbek tilining qipchoq lahjasida so‘zlashib<sup>30</sup>, ularda turkman tiliga xos xususiyatlar deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Zarafshon vohasining chap va quyi havzasidagi “Turkman” va “Chandir” etnotoponimli aholi maskanlarining ayrimlarida esa turkman tiliga ancha-muncha yaqinlik mavjud.

Ham ularning o‘zaro milliy ong sezimida, ham atrof qishloqlar aholisi tomonidan ushbu qishloqlar aholisini “turkman” millatiga mansub aholi, deb baholash an’anasi mavjud bo‘lsa-da, bu talqinni tom ma’noda tushunmaslik kerak. Ularning bir qismi o‘rta asrlarda shakllangan “92 bo‘li o‘zbek urug‘i” ro‘yxatlarining barchasida uchraydigan “turkman” urug‘i bilan bog‘liq bo‘lishi, bir qismi esa yaqin asrlarda Amudaryo – Kaspiy dengizi oralig‘idagi hududlardan Buxoro amirlari tomonidan ko‘chirib keltirilgan haqiqiy turkman xalqining avlodlari bo‘lib, keyinchalik o‘zbeklashib ketgan aholi vakillari bo‘lishi mumkin. Shu bois, “Zarafshon vohasi turkmanlari” deganda umumiy ma’noda “O‘zbek o‘g‘uzlari” yoki “O‘zbeklarning o‘g‘uz lahjasida so‘zlashuvchi aholi” yoki “etnik shakllanishida o‘g‘uz turklari qatnashgan o‘zbeklar” sifatida qarash nisbatan to‘g‘riroq bo‘ladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, XX asrdan birmuncha oldin Chorjuy va Buxoro shahri oralig‘ida, shuningdek, Qorako‘l vohasi (Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘i)da yashaydigan *xizr-eli / xidir-eli* va *chandir* urug‘i vakillari o‘zlarini turkman emas, o‘zbek deb bilganliklariga doir ma’lumotlar rus elchi va sayyohlarining qaydlarida uchraydi. Mazkur urug‘larning shevasida turkman tiliga o‘xshashlikka tayanib, ular bilan qo‘shni yashagan aholi ularni “turkman” deb atashlari natijasida mazkur “o‘zbek o‘g‘uzlari”ning ko‘p hollarda “turkman” deb talqin qilinishiga olib kelgan bo‘lishi mumkin. Zarafshon vohasi va unga qo‘shni vohalar (Nurota, Qashqadaryo)dagi “o‘zbek-turkman”, “turkman”, “xizr-eli”, “chandir” va hokazolar etnogenezida turkman xalqining u yoki bu darajada ishtirok etganligini<sup>31</sup> ta’kidlagan holda shuni ham aytib o‘tish kerakki, bu masalada boshqa omillar ham mavjud.

<sup>30</sup> Мошкова В.Г. Некоторые общие элементы в родоплеменном составе узбеков, каракалпаков и туркмен. // Материалы по археологии и этнографии Узбекистана: Труды института Истории и археологии АН УзССР. Т. 2. – Т., 1950. – С. 141-149; Мошкова В.Г. Ковроделие узбеков племени туркмен // Ковры народов Средней Азии. – Т.:1977. – С. 69-77;

<sup>31</sup> Агаджанов С. Г. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX – XIII вв. ... – С. 228.